

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Avgust №8, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 551-sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 28-avgustda
ruxsat etildi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

ULUG'BEK NURULLAYEV

Tomorqa xo'jaliklari faoliyatidan olingan daromadga noqishloq xo'jaligi faoliyati ta'sirini iqtisodiy baholash.....8

RO'ZMAMATOV ABBOS TOLIBJON O'G'LI

O'zbekistonda chakana savdo tarmog'ining tarkibiy o'zgarishlari va savdo xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari.....17

АЙТМУРАТОВА УЛБИКЕ ЖАЛГАСОВНА

Развитие методических подходов к комплексной оценке эффективности привлечения финансирования акционерными обществами через рынок капитала.....26

BAXRONOVA NILUFAR SUNNAT QIZI

Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot integratsiyasining innovatsion iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari.....36

KARAMATOVA NOIBA HUSNITDINOVNA

Korxonada ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish yo'nalishlari.....44

VEI ZHIBO

Madaniy meros turizmida raqamli kommunikatsiya, jamoatchilik ishtiroki va inklyuziv o'sish – Samarqand misolida.....53

ISMIGUL ABDULLAYEVA

Improving data management systems of small and medium enterprises through cloud technologies in the digital economy.....65

ABDURAYIMOV KAMOLIDDIN XURRAM O'G'LI

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligining amaldagi iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....70

KABILOVA SHAHNOZA JURAYEVNA, XALIMOV JAVLON

SHAXRIYOROVICH

Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: hududiy differensiatsiya tahlili (Qashqadaryo viloyati misolida).....80

UMAROVA SHAXLO ABDUVALIYEVNA

Strategik moliyaviy hisob tizimini tashkil etishning konseptual yondashuvlari va tarkibiy elementlari.....87

HOU MANPING, CUI HUIFANG

Lessons from China for ecological protection and restoration of the Aral sea basin.....102

SHADMANOV ZUHRIDDIN ZOKIRXODJAYEVICH

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishini baholash.....113

BADALOVA NIGORA NORKULOVNA

Davlat boshqaruvini raqamlashtirishning xorijiy modellari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....126





ZHU YU MING

The collaborative logic of digital transformation of China's tourism infrastructure.....137

ИСАЕВА АЙЖАН

Цифровая трансформация туризма как механизм структурной диверсификации сферы услуг.....152

KARIMOVA MAFTUNA NURDINOVNA

“Yashil” qo‘shilgan qiymat: organik, halol va karbon-neytral sertifikatlarining O‘zbekiston mahsulotlari narxiga ta’siri.....166

XABIBULLAYEV ANVAR SHOVIKAT O‘G‘LI

Zamonaviy boshqaruv modellari asosida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish.....177

SAPAYEV SINDOR QADAMBOY O‘G‘LI

Mintaqaviy innovatsion infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik rivojlanishi: qiyosiy tahlili.....185

SAIDOVA DILDORA NURMATOVNA

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida oziq-ovqat xavfsizligining ta’minlanishi.....194

UMAROV AZIZJON AZAMJON O‘G‘LI

Risklarning kichik biznes korxonalariga iqtisodiy ta’siri.....201

AZAMQULOV NURBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati hamda bug‘doy yetishtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....207

BAXTIYAROVA SABOHAT BAXTIYAROVNA

Raqamli transformatsiya sharoitida rahbarlarning strategik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish.....214

BOZOROVA MUXABBAT TO‘XTAYEVNA

Davr xarajatlari hisobini takomillashtirish.....221

DJURAYEV OLIMJON NARKULOVICH

Xizmatlar iqtisodiyotida mehnatni ratsional tashkil etishning zamonaviy konsepsiyalari va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlari.....230

KURBONOV BAXODIR ERGASHEVICH

Transfert narxlarning iqtisodiy mohiyati va ularni shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslari.....243

FAXRIDDINOV ABDULHAKIM ZIYAUDDINOVICH

Yangi O‘zbekistonda sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish istiqbollari.....249

OMONQULOV BEKZOD TURSUNALI O‘G‘LI

Kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari.....256

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning xorijiy modellari va ularni o‘zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari.....267

TURDIQULOV FARRUX RAVSHANJON O‘G‘LI

O‘zbekistonda kichik biznesning bandlik va YAIMdagi ulushlari nomutanosibli: milliy va hududiy statistik tahlili.....277





O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING BANDLIK VA YAIMDAGI ULUSHLARI NOMUTANOSIBLIGI: MILLIY VA HUDUDIY STATISTIK TAHLILI

TURDIQULOV FARRUX RAVSHANJON O'G'LI

Oriental universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: turdikulovfarrukh@gmail.com

ORCID: 0009-0002-6103-057

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining aholi bandligini ta'minlashdagi o'rni 2015–2025-yillar davri uchun statistik-tahliliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi – sektorning bandlik va yalpi ichki mahsulotdagi ulushi dinamikasini uzoq muddatli davr kesimida tahlil qilish, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash hamda ularni tarkibiy jihatdan izohlovchi diagnostik ko'rsatkichni asoslashdan iborat. Tadqiqot uslubi sifatida statistik dinamik tahlil, hududlararo qiyosiy tahlil hamda mualliflik bandlik–qiymat tafovuti (BQT) indikatoriga asoslangan tarkibiy diagnostika usuli qo'llanilgan. Tadqiqot Milliy statistika qo'mitasining SIAT bazasi, Markaziy bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Jahon banki, XMT va BMTTDning rasmiy ma'lumotlariga tayanadi. Natijada aniqlandiki, 2015–2025-yillarda kichik biznesning jami bandlikdagi ulushi 77,9 foizdan 74,9 foizga, atigi 3,1 foiz punktga pasaygan bo'lsa, uning YaIMdagi ulushi 64,6 foizdan 52,2 foizga, ya'ni 12,4 foiz punktga qisqargan; natijada bandlik–qiymat tafovuti 13,3 foiz punktdan 22,7 foiz punktga kengaygan. Hududiy tahlil bandlikdagi ulush bo'yicha 32,1 foiz punktik tafovutni (Andijon – 81,9%, Toshkent shahri – 49,8%) ochib berdi, bu esa kichik biznesning bandlik yaratishdagi rolini hududning sanoat konsentratsiyasi darajasi belgilashini tasdiqladi. Tadqiqot natijalaridan hududiy bandlik siyosatini differensiallashtirishda, statistika idoralari va iqtisodiy tahlil markazlarining amaliy faoliyatida foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: kichik biznes, bandlik, hududiy tafovut, bandlik–qiymat tafovuti, YaIM ulushi, mehnat bozori, norasmiy bandlik, statistik tahlil.

Аннотация. В статье в статистико-аналитическом аспекте освещена роль субъектов малого бизнеса в обеспечении занятости населения в Узбекистане за период 2015–2025 гг. Цель исследования заключается в анализе динамики доли сектора в занятости и валовом внутреннем продукте за длительный период, выявлении межрегиональных различий и обосновании диагностического показателя, объясняющего их структурную природу. В качестве методов исследования применены статистический динамический анализ, межрегиональный сравнительный анализ, а также метод структурной диагностики, основанный на авторском индикаторе разрыва между занятостью и добавленной стоимостью (РЗС). Исследование опирается на официальные данные базы SIAT Комитета по статистике, Центрального банка, Министерства экономики и финансов, а также Всемирного банка, МОТ и ПРООН. В результате установлено, что в 2015–2025 гг. доля малого бизнеса в общей занятости снизилась с 77,9% до 74,9%, то есть всего на 3,1 п.п., тогда как его доля в ВВП сократилась с 64,6% до 52,2%, то есть на 12,4 п.п.; вследствие этого разрыв между занятостью и добавленной стоимостью расширился с 13,3 до 22,7 п.п. Региональный анализ выявил разрыв в 32,1 п.п. по доле в занятости (Андижанская область – 81,9%, город Ташкент – 49,8%), что подтверждает зависимость роли малого бизнеса в создании занятости от уровня промышленной концентрации региона. Результаты исследования могут быть использованы при дифференциации региональной политики занятости, а также в практической деятельности статистических органов и центров экономического анализа.

Ключевые слова: малый бизнес, занятость, региональные различия, разрыв между занятостью и добавленной стоимостью, доля ВВП, рынок труда, неформальная занятость, статистический анализ.

Abstract. The article provides a statistical-analytical account of the role of small business entities in ensuring population employment in Uzbekistan over 2015–2025. The purpose of the study is to analyze the long-term dynamics of the sector's share in employment and gross domestic product, to identify inter-regional disparities, and to substantiate a diagnostic indicator that explains their





structural nature. The research methods include statistical dynamic analysis, inter-regional comparative analysis, and a structural-diagnostic method based on the author's Employment-Value Gap (EVG) indicator. The study draws on official data from the Statistics Agency's SIAT database, the Central Bank, the Ministry of Economy and Finance, and reports of the World Bank, ILO, and UNDP. The results show that over 2015–2025 the sector's share in total employment fell only marginally, from 77.9% to 74.9% (3.1 percentage points), while its share in GDP fell from 64.6% to 52.2% (12.4 percentage points); as a result, the employment-value gap widened from 13.3 to 22.7 percentage points. The regional analysis revealed a 32.1-percentage-point disparity in the employment share (81.9% in Andijan region versus 49.8% in Tashkent city), confirming that the role of small business in job creation is shaped by a region's degree of industrial concentration. The findings can be applied in differentiating regional employment policy and in the practical work of statistical agencies and economic-analysis centers.

Keywords: small business, employment, regional disparities, employment-value gap, GDP share, labor market, informal employment, statistical analysis.

KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jahon amaliyotida bandlikni ta'minlashning eng moslashuvchan institutsional shakli sifatida tan olingan: OECD ma'lumotlariga ko'ra, a'zo mamlakatlarda faoliyat yurituvchi firmalarning qariyb 99 foizini kichik va o'rta korxonalar tashkil qiladi [7]. Biroq bu sektorning bandlik yaratishdagi ulushi bilan iqtisodiy qiymat yaratishdagi ulushi o'rtasidagi nisbat mamlakatlar kesimida sezilarli farqlanadi, bu esa har bir milliy iqtisodiyot uchun alohida uzoq muddatli statistik tahlil zarurligini ko'rsatadi. O'zbekiston uchun bu masala ayniqsa dolzarb, chunki so'nggi o'n yillikda mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy islohotlar, tadbirkorlikni erkinlashtirish choralari va davlat registrilarini yagona tizimga keltirish kabi institutsional o'zgarishlar amalga oshirilib, bularning barchasi kichik biznes statistikasining dinamikasiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznesning bandlik yaratishdagi rolini xalqaro miqyosda statistik baholashga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida M. Ayyagari, A. Demirgüç-Kunt va V. Maksimovicning ishi alohida o'rin tutadi: ular rivojlanayotgan mamlakatlar ma'lumotlari asosida kichik va yosh firmalarning bandlik o'sishidagi ulushi rivojlangan mamlakatlarga qaraganda yuqoriroq ekanini, biroq bu ulushning barqarorligi mamlakatlar kesimida farqlanishini ko'rsatgan [2]. T.Beck, A.Demirgüç-Kunt va R. Levine kross-mamlakat tahlilida kichik biznes ulushi bilan YaIM o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni tekshirib, bu bog'liqlikning institutsional sifat va moliyaviy chuqurlik darajasiga bog'liqligini asoslagan [3]. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan monitoring tadqiqotlari ham muhim empirik asos yaratadi: Xalqaro Mehnat Tashkiloti O'zbekistonda norasmiy bandlikdan rasmiy bandlikka o'tish loyihasi doirasida norasmiy sektorning yuqori ulushini qayd etadi [6], Jahon bankining korxonalar so'rovi esa kichik firmalar uchun moliyalashtirishga kirish imkoniyati asosiy cheklov bo'lib qolayotganini tasdiqlaydi [18].

O'zbekistonlik iqtisodchilarning ishlarida kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi o'rni turli davrlar va jihatlar kesimida tahlil qilingan. S.S. G'ulomov





kichik biznesni mustaqillik yillaridagi bozor islohotlarining tayanch instituti sifatida tavsiflagan [5], U.V. G'afurov davlat tomonidan tartibga solish siyosatining sektor rivojlanishiga ta'sirini o'rgangan [4], G.Q. Abdurahmonova esa kichik biznesdagi bandlikning sifat parametrlariga, xususan ish o'rinlarining munosibligiga alohida e'tibor qaratgan [1]. S.K. Salaev kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini dinamik model asosida bashoratlashga urinib, sektor ko'rsatkichlarining nostabil xarakterini qayd etgan [16]. Biroq ushbu tadqiqotlarning aksariyati ma'lum bir qisqa davr yoki alohida bitta ko'rsatkich (masalan, faqat korxonalar soni yoki faqat YaIM ulushi) bilan chegaralanadi; ular bandlik ulushi bilan qiymat ulushi o'rtasidagi tafovutni birgalikda, o'n yildan ortiq davr kesimida va bir vaqtning o'zida hududiy tafovutlar bilan bog'liq holda tahlil qiluvchi yaxlit statistik-dagnostik yondashuvni taklif etmaydi.

Aynan shu ilmiy bo'shliq – kichik biznesning bandlik va qiymat yaratishdagi o'rnini 2015–2025-yillar uzoq davri kesimida yagona diagnostik ko'rsatkich yordamida tahlil qilish hamda buni hududiy tafovutlar bilan bog'liq holda talqin qilish tajribasining yetishmasligi – mazkur maqolaning tadqiqot yo'nalishini belgiladi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-50-son Farmonida [15] belgilangan 2030-yilgi maqsadli ko'rsatkichlarga erishish yo'lidagi amaldagi tendensiyalarni baholash uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot Milliy statistika qo'mitasining SIAT ma'lumotlar bazasi, Markaziy bank va Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy ma'lumotlari, shuningdek Jahon banki, XMT, BMTTD va OECDning tegishli hisobotlariga tayanadi [7–12, 17–18]. Ma'lumotlar tahliliga kirishishdan oldin uchta muhim metodik shart hisobga olindi: birinchidan, faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar qatoriga dehqon va fermer xo'jaliklari kiritilmagan; ikkinchidan, 2022-yildan boshlab davlat registr bazalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-113-son Farmoni asosida o'zaro birxillashtirilgani sababli [13], 2023–2025-yillardagi faol subyektlar sonidagi o'zgarishni mexanik ravishda iqtisodiy qisqarish sifatida talqin qilish metodologik jihatdan noto'g'ri; uchinchidan, kichik biznesda band bo'lganlarning mutlaq soni bo'yicha rasmiy qator hozircha 2024-yilgacha e'lon qilingani sababli, 2025-yil uchun tahlilda faqat ulush ko'rsatkichidan foydalanildi.

Shu asosda tadqiqotda quyidagi masalalar qo'yildi: birinchidan, kichik biznesning bandlik va YaIMdagi ulushi dinamikasini 2015–2025-yillar kesimida tahlil qilish va ularning o'zaro nisbatini tavsiflovchi diagnostik ko'rsatkichni ishlab chiqish; ikkinchidan, sektorning hududlar kesimidagi bandlik, YaHM, eksport va investitsiya ko'rsatkichlarini qiyoslab, hududiy tafovutlarning kattaligi va sabablarini aniqlash; uchinchidan, olingan tendensiyalarni bandlikning sifat jihatlarini (norasmiylik darajasi) bilan bog'liq holda talqin qilish. Tadqiqot obyekti – O'zbekiston Respublikasi kichik biznes subyektlari, predmeti esa – ularning 2015–2025-yillardagi bandlik dinamikasi hamda ushbu dinamikaning hududiy kesimdagi tarkibiy tafovutlaridir.



Tadqiqotda ikki bosqichli tahlil sxemasi qo'llanildi. Birinchi bosqichda milliy darajadagi statistik dinamik tahlil o'tkazilib, kichik biznesning YaIMdagi, jami bandlikdagi, eksportdagi va investitsiyalardagi ulushi 2015–2025-yillar kesimida qiyoslandi. Ikkinchi bosqichda hududlararo qiyosiy tahlil o'tkazilib, 14 hudud (Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat va Toshkent shahri) bo'yicha 2025-yilgi ko'rsatkichlar taqqoslandi.

Ikki ulush ko'rsatkichi – bandlik va YaIM (YaHM) ulushlari – o'rtasidagi nisbatni yagona sonli ko'rsatkichda ifodalash maqsadida tadqiqotda mualliflik bandlik–qiymat tafovuti (BQT) indikatori taklif etiladi:

$$BQTit = EMPShareit - GDPShareit \quad (1)$$

bunda: BQTit – i-hududda (yoki mamlakat darajasida) t-yilda bandlik–qiymat tafovuti, foiz punktda; EMPShareit – kichik biznesning jami bandlikdagi ulushi; GDPShareit – uning YaIM (hududlar uchun – YaHM)dagi ulushi. Ko'rsatkichning musbat va o'sib boruvchi qiymati sektor mehnat resurslarining katta qismini jalb etayotganini, biroq yaratilayotgan qo'shilgan qiymatdagi ulushi nisbatan sekinroq o'sayotganini yoki pasayayotganini bildiradi. Muhim metodik jihat shundaki, BQT ko'rsatkichi tarkibiy diagnostika vositasi bo'lib, uni bevosita mehnat unumdorligi darajasining o'lchovi sifatida talqin qilish noto'g'ri, chunki u faqat ikki ulush o'rtasidagi nisbiy farqni aks ettiradi, mutlaq unumdorlik darajasini emas.

Hududiy tafovutlarni miqdoriy baholash uchun eng yuqori va eng past ko'rsatkichga ega hududlar o'rtasidagi farq (range) hamda respublika o'rtacha ko'rsatkichidan chetlanish darajasi hisoblandi. Barcha hisob-kitoblar rasmiy statistik ma'lumotlar asosida, qo'shimcha ekonometrik modellashtirishsiz, tasviriy statistika (descriptive statistics) usullari yordamida amalga oshirildi – bu tanlov tadqiqotning maqsadidan, ya'ni uzoq muddatli tendensiya va hududiy tafovutlarni aniq va tushunarli tarzda ochib berishdan kelib chiqadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Kichik biznes rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari 2015–2025-yillar kesimida 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


O'zbekistonda kichik biznes rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, 2015–2025-yillar

Yil	YaIMdagi ulushi, %	Jami bandlikdagi ulushi, %	Faol subyektlar, birlik	Eksportdagi ulushi, %	Investitsiyalardagi ulushi, %
2015	64,6	77,9	196 014	27,0	40,3
2016	66,8	78,2	207 104	26,0	40,9
2017	67,4	78,0	210 594	22,0	38,1
2018	63,5	76,3	229 666	27,2	38,0
2019	58,1	76,2	262 930	27,0	44,3
2020	56,7	74,5	334 767	20,5	46,0
2021	56,3	74,5	411 203	20,0	45,6

2022	54,3	73,9	462 834	31,2	47,9
2023	53,8	74,0	523 556	27,9	49,6
2024	53,5	73,9	417 080	34,1	52,4
2025	52,2	74,9	358 116	36,6	61,4

Manba: Milliy statistika qo'mitasi SIAT bazasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [9–10].

Jadval ma'lumotlari kichik biznes rivojlanishida ikki qarama-qarshi tendensiyaning ochib beradi. Sektorning YaIMdagi ulushi 2017-yildagi 67,4 foizdan 2025-yilda 52,2 foizga, ya'ni 15,2 foiz punktga pasaygan, jami bandlikdagi ulushi esa shu davrda 78,0 foizdan 74,9 foizga, atigi 3,1 foiz punktga kamaygan va yuqori darajada saqlanib qolgan. Shu bilan bir vaqtda investitsiyalardagi ulush 38,1 foizdan 61,4 foizga, eksportdagi ulush esa 22,0 foizdan 36,6 foizga o'sgan. Ushbu nomutanosiblik (1)-formula bo'yicha hisoblangan BQT ko'rsatkichida yaqqol namoyon bo'ladi (1-rasm).



Manba: muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

1-rasm. Kichik biznesning YaIM va jami bandlikdagi ulushi dinamikasi, 2015–2025-yillar

1-rasmda ikki egri chiziq orasidagi farq – ya'ni BQT ko'rsatkichi – izchil kengayib borgani ko'rinadi: 2015-yilda u 13,3 foiz punktni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 22,7 foiz punktga yetgan. Bu iqtisodiy jihatdan kichik biznesning bandlik sig'imi barqaror yuqori saqlanib qolayotgani, biroq bir band xodimga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymat yaratish qobiliyati yirik sektorga nisbatan izchil pasayib borayotganini bildiradi. Grafik shuningdek COVID-19 pandemiyasining aniq izini ham ko'rsatadi: YaIM ulushi 2018–2020-yillarda keskin (63,5 foizdan 56,7 foizga) qisqargan, bandlik ulushi esa nisbatan yumshoqroq pasaygan – bu kichik biznesning inqiroz davrida ham bandlikni saqlab qolish, biroq qo'shilgan qiymat yo'qotish orqali «amortizatsiya qiluvchi»



rol o'ynaganini ko'rsatadi. Taqqoslash uchun, OECD a'zo mamlakatlarida kichik va o'rta korxonalar firmalarning qariyb 99 foizini tashkil etgan holda o'rtacha 50–60 foiz qo'shilgan qiymat yaratadi [7]; O'zbekistonda esa 2025-yilda 51,5 foizlik qo'shilgan qiymat ulushi ancha yuqori (74,9%) bandlik ulushi bilan birga kelmoqda – bu OECD mamlakatlariga nisbatan ancha keng BQT tafovutini anglatadi.

Sektorning hududlar kesimidagi taqsimoti sezilarli notekislik bilan tavsiflanadi (2-jadval).

2-jadval


Kichik biznesning hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari, 2025-yil, %

Hudud	YaHMDagi ulushi	Bandlikdagi ulushi	Eksportdagi ulushi	Investitsiyalardagi ulushi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	65,5	76,5	44,0	50,1
Andijon	70,1	81,9	47,5	77,2
Buxoro	71,0	74,9	52,1	56,9
Jizzax	71,2	78,0	79,0	74,7
Qashqadaryo	69,2	78,8	36,8	39,5
Navoiy	21,1	54,8	5,4	53,8
Namangan	73,6	81,3	54,0	83,7
Samarqand	69,5	81,7	44,9	63,4
Surxondaryo	76,4	78,2	68,6	63,5
Sirdaryo	69,5	74,4	70,1	69,2
Toshkent viloyati	55,0	71,6	44,7	55,6
Farg'ona	73,0	79,6	65,0	74,7
Xorazm	71,6	80,3	80,8	69,2
Toshkent shahri	51,7	49,8	22,7	53,1
O'zbekiston Respublikasi	52,2	74,9	36,6	61,4

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [10].

Hududiy tahlil natijalari kichik biznesning bandlikdagi ulushi bo'yicha tafovut 32,1 foiz punktni tashkil etishini ko'rsatadi (2-rasm): eng yuqori ko'rsatkich Andijon viloyatida (81,9%), eng past ko'rsatkich esa Toshkent shahrida (49,8%) qayd etilgan.





Manba: muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

2-rasm. Kichik biznesning bandlikdagi ulushi hududlar kesimida, 2025-yil (punktir chiziq – respublika o'rtachasi, 74,9%).

2-rasmdan ko'rinadiki, 14 hududning 10 tasida ko'rsatkich respublika o'rtachasidan yuqori. Navoiy viloyatida kichik biznesning YaHMDagi ulushi atigi 21,1 foizni, bandlikdagi ulushi esa 54,8 foizni tashkil qiladi – bu sanoatning yirik korxonalar (birinchi navbatda tog'-metallurgiya kompleksi) atrofida yuqori konsentratsiyasi bilan izohlanadi. Toshkent shahrida ham bandlikdagi ulush (49,8%) respublika o'rtachasidan sezilarli past, bu poytaxtda yirik korxonalar, davlat boshqaruvi va moliyaviy xizmatlar sektorining bandlik yaratishdagi ulushi yuqoriligi bilan bog'liq. Aksincha, Surxondaryo (YaHMDagi ulush – 76,4%), Farg'ona va Namangan kabi agrar va mehnat resurslariga boy hududlarda kichik biznes bandlikning asosiy, ko'p hollarda deyarli yagona manbai bo'lib qoladi.

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, kichik biznesning bandlik yaratishdagi roli hududning iqtisodiy tuzilmasiga, xususan sanoat konsentratsiyasi darajasiga bevosita bog'liq: sanoat va poytaxt maqomiga ega hududlarda yirik korxonalar hamda davlat sektori bandlikning katta qismini o'z zimmasiga oladi, agrar hududlarda esa bu vazifani asosan kichik biznes bajaradi. Bu xulosa M. Ayyagari va hammualliflari tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha qayd etilgan – kichik firmalarning bandlik yaratishdagi ulushi barqaror emasligi va institutsional-tarmoq sharoitiga qarab farqlanishi haqidagi umumiy xulosa bilan mos keladi [2], biroq mazkur tadqiqotda bu qonuniyat O'zbekiston hududlari misolida aniq sonli ko'rsatkichlar bilan tasdiqlandi.

Bandlikning miqdoriy ko'rsatkichlari uning sifat tavsifini to'liq aks ettirmaydi. Xalqaro tashkilotlar baholariga ko'ra, O'zbekistonda norasmiy bandlik



ishchi kuchining qariyb 40 foizini qamrab oladi [6], BMTTD va Markaziy bankning qo'shma tadqiqoti esa norasmiylik ayniqsa qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo va xizmatlar sohalarida – ya'ni aynan kichik biznes ustunlik qiladigan tarmoqlarda – keng tarqalganini ko'rsatadi [17]. Jahon bankining korxona darajasidagi so'rovi ham kichik firmalar uchun moliyalashtirishga kirish va malakali kadrlar yetishmasligi asosiy cheklovlar bo'lib qolayotganini tasdiqlaydi [18]. Demak, kichik biznesning yuqori va barqaror bandlik ulushi ko'rsatkichi ortida ish o'rinlarining rasmiyligi va sifat darajasiga oid jiddiy muammolar yashiringan bo'lib, bu holat BQT ko'rsatkichining kengayib borishi bilan bevosita bog'liq: bandlik ulushi yuqori saqlanib, qo'shilgan qiymat ulushi pasaygan sharoitda, ehtimol, band bo'lganlarning bir qismi past unumdorlikka ega norasmiy yoki yarim rasmiy ish o'rinlarida faoliyat yuritmoqda.

Olingan natijalar tadqiqot boshida qo'yilgan barcha uch vazifa bilan izchil bog'langan: milliy tendensiyalarni tahlil qilish vazifasi 1-jadval, 1-rasm va (1)-formula orqali, hududiy tafovutlarni aniqlash vazifasi 2-jadval va 2-rasm orqali, natijalarni sifat jihatlarini bilan bog'lab talqin qilish vazifasi esa norasmiy bandlik ko'rsatkichlari bilan qiyosiy muhokama orqali bajarildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil natijasida O'zbekistonda kichik biznesning bandlikni ta'minlashdagi o'rniga oid uch asosiy xulosaga kelindi. Birinchidan, 2015–2025-yillarda kichik biznes mamlakat bandligining asosiy manbai bo'lib qoldi: sektorning jami bandlikdagi ulushi barqaror yuqori (74–78%) darajada saqlanib qolgan holda, uning YaIMdagi ulushi 15,2 foiz punktga pasaygan, natijada muallif tomonidan taklif etilgan bandlik–qiymat tafovuti (BQT) ko'rsatkichi 13,3 foiz punktdan 22,7 foiz punktga kengaygan – bu sektorning bandlik sig'imi yuqoriligi bilan bir qatorda nisbiy mehnat unumdorligining izchil pasayib borayotganini ko'rsatadi. Ikkinchidan, kichik biznesning bandlik yaratishdagi roli hududlar kesimida keskin farqlanadi: bandlikdagi ulush bo'yicha hududlararo tafovut 32,1 foiz punktni tashkil etib, bu tafovut bevosita hududning sanoat konsentratsiyasi darajasi bilan bog'liq. Uchinchidan, bandlikning yuqori miqdoriy ko'rsatkichlari uning sifat muammolarini, xususan yuqori norasmiylik darajasini yashirishi mumkin, shu sababli kelgusi tadqiqotlarda va amaliy siyosatda kichik biznes bandligini nafaqat miqdoriy, balki rasmiylik va unumdorlik mezonlari bo'yicha ham baholash zarur.

Amaliy-iqtisodiy nuqtai nazardan, taklif etilgan BQT ko'rsatkichi va hududiy tafovutlar tahlili davlat qo'llab-quvvatlash resurslarini eng yuqori bandlik samarasi kutilayotgan, ammo hozircha past unumdorlikka ega hududlar va tarmoqlarga aniq yo'naltirish imkonini beradi, bu esa PF-50-son Farmonda belgilangan 2030-yilgi maqsadli ko'rsatkichlarga erishishga xizmat qiladi. Ishlab chiqilgan tahliliy asos dissertatsiya tadqiqotining keyingi bosqichida hududiy panel ma'lumotlar bazasi asosida chuqurlashtirilib, kichik biznesda bandlikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmonova G.Q. Kichik biznesda aholini ish bilan ta'minlash: monografiya. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2014. – 168 b.
2. Ayyagari M., Demirgüç-Kunt A., Maksimovic V. Who Creates Jobs in Developing Countries? // Small Business Economics. – 2014. – Vol. 43. – №1. – P. 75–99. DOI: <https://doi.org/10.1007/s11187-014-9549-5>
3. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Levine R. SMEs, Growth, and Poverty: Cross-Country Evidence. – NBER Working Paper №11224, 2005. DOI: <https://doi.org/10.3386/w11224>
4. G'afurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: iqt. fan. dokt. dis. avtoref. – Toshkent, 2017. – 68 b.
5. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – Toshkent, 1998. – 176 b.
6. International Labour Organization. Transition from Informal to Formal Employment Project, Uzbekistan [Elektron resurs]. – URL: <https://www.ilo.org/projects-and-partnerships/projects/transition-informal-formal-employment-project-uzbekistan> (murojaat qilingan sana: 2026.08.20).
7. OECD. SMEs and Entrepreneurship [Elektron resurs]. – URL: <https://www.oecd.org/en/topics/smes-and-entrepreneurship.html> (murojaat qilingan sana: 2026.08.20).
8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi faoliyati to'g'risida ma'lumot [Elektron resurs]. – URL: <https://gov.uz/oz/imv/news/view/70217> (murojaat qilingan sana: 2026.07.01).
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi statistikasi (01.01.2025 va 01.01.2026 holatiga) [Elektron resurs]. – URL: <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/3326290/> (murojaat qilingan sana: 2026.08.20).
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari: press-reliz, 24.10.2025-y. [Elektron resurs]. – URL: https://stat.uz/img/press-relizlar/kb_uz_p46946.pdf (murojaat qilingan sana: 2026.07.20).
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni [Elektron resurs]. – URL: <https://siat.stat.uz/data/425/> (murojaat qilingan sana: 2026.07.20).
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Yalpi ichki mahsulot: press-reliz, 28.10.2025-y. [Elektron resurs]. – URL: https://stat.uz/img/press-relizlar/analitika-vvp_zb-lotin_p95454.pdf (murojaat qilingan sana: 2026.07.20).
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat registr bazalarini o'zaro birxillashtirish to'g'risidagi PF-113-son Farmoni, 2022-yil.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qarori // Lex.uz [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6609110>





15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2025-yil 19-martdagi PF-50-son Farmoni // Lex.uz [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/-7444738>

16. Salaev S.K. Kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va bashoratlash // Moliya va bank ishi jurnali. – 2022. – URL: <https://finance.tsue.uz/index.php/afa/article/view/586>

17. UNDP, Central Bank of Uzbekistan, CERR. Informal Employment in Uzbekistan. – Tashkent, 2025 [Elektron resurs]. – URL: <https://www.undp.org/uzbekistan/publications/informal-employment-uzbekistan> (murojaat qilingan sana: 2026.08.20).

18. World Bank. Uzbekistan – Enterprise Survey 2019 [Elektron resurs]. – URL: <https://microdata.worldbank.org/catalog/3723>. DOI: 10.48529/aqtj-mv14



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**